

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

OTAMIRZAYEVA MOXIGUL XAKIMJON QIZI

**SHIMOLIY FARG‘ONA DARYO HAVZALARI LANDSHAFTLARINING
ANTROPOGEN TRANSFORMATSIYASI VA KARTALASHTIRISH**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

UO‘K: 551.453 (575-1)

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on geographical sciences**

Otamirzayeva Moxigul Xakimjon qizi

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaftlarining antropogen transformatsiyasi
va kartalashtirish 3

Отамирзаева Мохигул Хакимжон қизи

Антропогенная трансформация и картографирование ландшафтов бассейнов
рек Северной Ферганы 21

Otamirzaeva Mokhigul Khakimjon qizi

Anthropogenic transformation and mapping of the landscapes of the Northern
Fergana river basins 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

OTAMIRZAYEVA MOXIGUL XAKIMJON QIZI

**SHIMOLIY FARG‘ONA DARYO HAVZALARI LANDSHAFTLARINING
ANTROPOGEN TRANSFORMATSIYASI VA KARTALASHTIRISH**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Gr216 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich**
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Rafiqov Vahob Asomovich**
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

Alimqulov Nusratulla Raxmonqulovich
geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Osh davlat universiteti (Qirg'iz Respublikasi)**

Dissertatsiya himoyasi Sharov Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "20" may soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand sh. Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-16-36, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru Samarqand davlat universiteti, Geografiya va ekologiya fakulteti).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 33 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ da tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.B.Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d.(PhD), dotsent

Q.S.Yarashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tabiat landshaftlaridan intensiv foydalanilayotganligi tufayli tabiiy muhitda texnogen buzilish, iqlim o'zgarishi, kimyoviy ifloslanish, tuproq va biotik omillarning degredatsiyasi va boshqa salbiy ekologik jarayonlar kuchayib bormoqda. Bu muammolarga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar katta e'tibor bermoqda. Jumladan, BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida belgilab berilgan maqsadlardan biri "quruqlik ekosistemalarini asrash, o'rmonlardan oqilona foydalanish, qumlanishga qarshi kurash, yerlarning tanazzulga uchrashi jarayonini to'xtatib, yerlarni qayta tiklash, biologik xilma-xillikning yo'qolib ketishini to'xtatish"¹ quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o'rmonlarni ratsional boshqarish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning degredatsiyasini to'xtatish va biologik xilma-xillik yo'qolishining oldini olish vazifalari yechimiga yo'naltirilgan. Mazkur vazifalar ayniqsa arid iqlimli hududlarda, shu jumladan, Shimoliy Farg'ona daryolari havzalari landshaftlarini funksional bir butun tizim sifatida tadqiq etishni va havza landshaftlarini transformatsiyalashuvi, mavjud ekologik muammolarni optimallashtirishni taqozo etadi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida yerlardan xo'jalikning turli maqsadlarida foydalanish, qishloq xo'jaligi yuritish va landshaftlarda meliorativ tadbirlarni olib borish, landshaftlarni gorizontal va vertikal tabaqalanishini va ularning strukturasi funksional-dinamik bir butunligidan foydalanib hududlarni turli xo'jalik maqsadlarda tadqiq etish, daryolar havzalari landshaftlarini landshaft-ekologik sharoitini optimallashtirish va qishloq xo'jalik maqsadlarida baholash, geosistemali yondoshuv asosida o'zaro aloqadorligini aniqlash, sug'oriladigan yerlarning texnogen buzilishi, tuproq degredatsiyasi, ekin yerlarining meliorativ holatining yomonlashishi, erozion jarayonlarni kuchayib borishi, tuproq va o'simlik degradatsiyasi, deflyatsiya kabi salbiy tabiiy geografik jarayonlar tezlashishini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, ekologik havfsizlik va uni barqarorlashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 484-sonli qarorlarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada ekologik vaziyati o'ziga xos bo'lgan Shimoliy Farg'ona daryo havzalari landshaftlarini bir butun tizim sifatida transformatsiyalashuv printsipli asosida tadqiq etish, daryo havzalari landshaftlarini kartalashtirish va transformatsiyalanish qonuniyatlari aniqlash, landshaft-ekologik vaziyatini baholash va landshaft-ekologik rayonlashtirish orqali vujudga kelgan ekologik vaziyatlarni

¹ BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturi 15-maqsadi "quruqlik ekosistemalarini asrash"
<https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs/15>

optimallashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-76-son “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish”, “O‘rmonlar maydonini kengaytirish”² maqsadlarini o‘z ichiga olgan alohida yo‘nalishi, mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Yangi O‘zbekistonimiz yangi parlamenti bilan birga o‘z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo‘ymoqda” nomli ma‘ruzasida 2025 yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb nomlanishi ham bejiz emasligi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi: Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” va VIII. “Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Landshaftlar transformatsiyasiga oid nazariy-metodologik tadqiqotlar ko‘plab xorijiy, MDH hamda mamlakatimizning bir qator yetakchi olimlarining ilmiy ishlarida yoritilgan. Jumladan, xorijlik va MDH davlatlari olimlaridan Erle C. Ellis, Jan Bogaert, M.Assefa, W.A.Melesse, E.Wohl, M.Antrop, N.Horning, J.Wu, G.K.Anornul, R.Hobbs, E.O.Neef, J.Mc-Closkey, A.Michael, V.B.Mihno, I.I.Mamay, V.A.Nikolaev, A.N.Kashtanov, M.SH.Ishankulov, A.Yu.Reteyum, K.A.Drozdov, P.G.Shishchenko, A.S.Rulev, V.Tabunshchik va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mamlakatimiz geograf olimlaridan A.A.Rafiqov, A.A.Abdulqosimov, L.A.Alibekov, A.Maqsudov, B.A.Kamalov, X.Vaxobov, A.N.Nigmatov, S.B.Abbasov, A.Raxmatullaev, V.A.Rafiqov, Yu.Sultanov, I.Abdug‘aniyev, Sh.S.Zokirov, I.Q.Nazarov, Q.S.Yarashev, S.I.Abdullayev kabilar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida hududlarning geoekologik holati, landshaft-ekologik vaziyatlarni keskinlashishini kuchaytiruvchi omillar, tuproq, suv, atmosfera havosining ifloslanishlari, cho‘llanish jarayonlari, ekologiya va inson salomatligi masalalari, “antropogen yuk”, ekologik vaziyatlarni o‘rganishda kompleks va tizimli yondashuv masalalari yoritilgan.

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaftlari kompleks va komponentlari bo‘yicha turlicha ko‘rinishdagi tabiiy geografik tadqiqotlar L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.A.Abdulqosimov, A.Maqsudov, B.A.Kamalov, K.M.Boymirzayev, O.I.Abduganiyev, A.A.Nazarov, O.T.Mirzamaxmudov, R.Y.Xoliqov, E.A.Soliyev,

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni. <http://uza.uz>

I.R.Soliyev, I.K.Mirzahmedov, N.N.Alimdjanov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Biroq, shu paytgacha bajarilgan tadqiqotlarda Shimoliy Farg‘ona daryolari havzalari landshaftlarining bir butun tizim sifatida transformatsiyalashuvi hamda kartalashtirish masalalari alohida o‘rganilmagan, funksional-dinamik tizim sifatida daryo havzalarining landshaft-ekologik vaziyati baholanib, rayonlashtirish ishlari amalga oshirilmagan hamda landshaft-ekologik vaziyatlarini optimallashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Olib borilayotgan tadqiqot ishi Namangan davlat universiteti Geografiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrasining “Farg‘ona vodiysida ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishning tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va landshaft-ekologik omillarini tadqiq qilishning mintaqaviy xususiyatlari” mavzusida olib borilayotgan majmual ilmiy ishlar rejalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaftlarini bir butun tizim sifatida tadqiq etish, ularning transformatsiyalashuvi va landshaft-ekologik vaziyatini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olingan:

daryo havzalari landshaftlarini bir butun geotizim sifatida vujudga kelishi, transformatsiyalashuvi, landshaft –ekologik sharoiti va uni baholash haqidagi ilmiy manbaalar, kartografik materiallar va kosmik suratlarni o‘rganish;

daryo havzalari landshaftlarini funksional-dinamik geotizim sifatida o‘rganishning ilmiy-metodik yo‘llarini ishlab chiqish;

daryo havzalari landshaftlarini bir butun tizim sifatida shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi tabiiy omillarni aniqlash;

Shimoliy Farg‘ona daryolar havzalari landshaftlari va unga tutash hududlarning turli masshtabli landshaft va landshaft-ekologik baholash kartalarini zamonaviy dasturlar orqali yaratish;

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalarida vujudga kelgan landshaft-ekologik vaziyatlarni o‘rganish asosida rayonlashtirish hamda optimallashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Shimoliy Farg‘ona daryo havzalarining landshaft komplekslari olingan.

Tadqiqotning predmeti Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaftlarini bir butun tizim sifatida vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari, havzalarning transformatsiyalashuvi va mikrozonal differentsiatsiyalanishi, vujudga kelgan landshaft-ekologik vaziyatlarni yaxshilash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda dala tadqiqotlari, kartografik manbalar bilan ishlash, statistik, geografik ekstrapolyatsiya, geografik baholash, masofadan zondlash tasvirlarini GIS usullarida deshifrovka qilish, qiyosiy tahlil va statistik ma’lumotlarni grafiklar va jadvallarda tizimlash hamda umumlashtirish kabi bir qator usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalarining chegaralari Raqamli Balandlik Modeliga (DEM) ega masofadan zondlash (SRTM kosmik tasvirlari) asosida hamda landshaftlarning antropogen transformatsiya jarayonini tuproq qoplami va yerdan foydalanish (Sentinel 2) kartalari orqali 2017-2023 yillardagi o‘zgarishlari aniqlangan;

Pochchaotasoy, G‘ovasoy, Kosonsoy daryo havzalarining 1: 600000 masshtabli landshaft transformatsiyalashuvi hamda 1: 300000 mashtabli seliteb va agrolandshaftlarga transformatsiyalangan fatsiyalari kartalari zamonaviy GIS dasturlaridan foydalangan holda yaratilgan;

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaftlarining antropogen transformatsiyalashuvi natijasida tarkib topayotgan landshaft-ekologik vaziyat va daryo havzalarining ifloslanishi aniqlangan hamda ularning optimallashtirish yo‘l-yo‘riqlari ishlab chiqilgan;

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari yonbag‘irlari qiyaligiga ko‘ra 5 ta turga va 4 ta landshaft-ekologik rayonga ajratilgan hamda landshaft-ekologik jihatidan tavsiflangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalarining landshaftlar transformatsiyasi masofadan zondlash Sentinel-2 suniy yo‘ldoshining tuproq qoplami va yerdan foydalanish kartalari yordamida aniqlash imkoniyatlari takomillashtirilgan;

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalarining yonbag‘ir qiyalik yo‘nalishi, nishablik darajasi ko‘rsatkichlari qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirish, tuproq qoplami va yerdan foydalanish kartalari agrolandshaftlar kadastrini ishlab chiqish, yangi yerlarni o‘zlashtirish kabi jarayonlarda foydalanish imkonini bergan;

daryo havzasi landshaftlarining funksional-dinamik tizim sifatida vujudga kelishi, o‘zgarib borishi va landshaft-ekologik vaziyatining tarkib topishi madaniy landshaftlarni barpo etish chora-tadbirlarini ilmiy asosda amalga oshirishda muhim ekanligi asoslangan;

kadastr agentligi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, qishloq xo‘jaligi, boshqarmalari faoliyatida foydalanish uchun “Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaftlarining antropogen transformatsiyasi va ekologik vaziyati” nomli monografiya nashr etilgan;

tuproq qoplami va yerdan foydalanish kartalari transchegaraviy daryo havzalari landshaftlarini tatqiq etishning muhim manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo‘llanilgan zamonaviy usullar va ilmiy yondoshuvlar asosida olingan natijalarning nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, olingan xulosalar va qonuniyatlarni asoslanganligi, shuningdek dissertatsiya ishi amaliy natijalarini tegishli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi ma‘lumotlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining topografik kartalaridan foydalanilganligi, ko‘p yillar davomida to‘plangan dala tadqiqot, tajriba-eksperiment asosida yaratilgan kartalar, nazariy ishlanmalar, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati landshaftlarning antropogen transformatsiyasi va daryo havzalari landshaftlarining funksional-dinamik tizim sifatida tadqiq etishning ilmiy-metodologik asoslari takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaftlarida yaxshilangan gidrologik aylanma harakat, suv resurslarini maydonli manbalardan ifloslanishini kamaytirishga hamda yer resurslaridan samarali foydalanishga, turli xil meliorativ tadbirlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaftlarining antropogen transformatsiya va kartalashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalarining suvayirgich chegaralari hamda landshaftlarning antropogen transformatsiyalashuvi kosmik suratlar (SRTM, Sentenel-2) asosida GIS metodlari yordamida aniqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 28-noyabrdagi-03-03/3-11635-sonli ma’lumotnomasi). Natijada daryo havzalari landshaftlarining antropogen transformatsiyalashuvini aniqlash hamda hudud yer va suv resurslarini muhofaza qilish rejalarini takomillashtirish imkonini bergan;

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalarining 1: 600000 masshtabli landshaft transformatsiya kartalari hamda 1: 300000 mashtabli seliteb va agrolandshaftlarga transformatsiyalangan fatsiyalari kartasi GIS dasturlaridan foydalanilgan holda yaratilgan va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 28-noyabrdagi-03-03/3-11635-sonli ma’lumotnomasi). Natijada yaratilgan fatsiyalar kartasi orqali daryo havzalari landshaftlarining o‘zgarganlik darajasini aniqlash imkonini bergan;

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaftlarning antropogen transformatsiyasi asosida landshaft-ekologik vaziyatlarning vujudga kelishi, kollektor drenaj va chiqarib yuborilgan suvlarning daryo suvlariga qo‘shilishi, daryo suvlari ifloslanishini kamaytirishga daryo havzalarining qattiq qatlamli yuzalar bilan qoplanish darajasi aniqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 28-noyabrdagi-03-03/3-11635-sonli ma’lumotnomasi). Natijada majmualifloslantiruvchi moddalar indexsi bo‘yicha yer usti suvlarining ifloslanish darajasini aniqlash va daryo havzalari hamda suvlari ifloslanishini kamaytirish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish imkonini bergan;

Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaft-ekologik rayonlarga ajratilgan, landshaft-ekologik sharoiti baholangan, online platformalar (Copernicus EU, Earth Explorer, Google Earth, Google Maps) kosmik tasvirlari hamda ma’lumotlaridan foydalanilib Arc GIS kabi zamonaviy dasturlar imkoniyatlari

asosida ishlab chiqilgan kartalar daryo havzalarining tabiatini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatida foydalanish uchun joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 28-noyabrdagi-03-03/3-11635-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, daryo havzalari landshaft-ekologik rayonlarga ajratilib, har bir rayon tavsiflangan va landshaft-ekologik sharoitini baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ishning tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika, 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy rejalari bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiq etish metodologiyasi va metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, himoyaga olib chiqilgan ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Landshaftlarning antropogen transformatsiyalashuvi va daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari, daryo havzalari landshaftlarining funksional bir butun dinamik tizim sifatida tadqiq etishning ilmiy va amaliy ahamiyati, daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari batafsil yoritib berilgan.

Landshaft-bu tabiat va jamiyatning bir butun hosilasidir. Jamiyat va tabiat dinamik bo'lgani uchun o'zgarish landshaftlarga xos xususiyatdir. Landshaftlar transformatsiyasiga N.T.Sabirova quyidagicha ta'rif beradi: landshaftlar transformatsiyasi bu – tashqi ta'sir natijasida (tabiiy, antropogen) landshaftlarni o'zgarishi ya'ni, bir landshaft xolatidan boshqa landshaft xolatiga almashinishidir. Transformatsiya daryo havzasining ajralmas qismi bo'lib, tabiiy hamda antropogen omillar asosida shakllanadi. Daryo havzasi landshaftlarining tabiiy transformatsiyalanishi suv toshqinlari, qurg'oqchilik, shamol bo'ronlari, eroziya va

choʻkindilarning depositsiyasi, iqlim oʻzgarishi, muzliklarning faoliyati, tektonik harakatlar natijasida roʻy beradi. Daryo havzalari landshaftlarining antropogen transformatsiyasini vujudga keltiruvchi antropogen omillar daryo oqimini oʻzgartirish, qishloq xoʻjaligi, yogʻoch yigʻib olish, urbanizatsiya, konchilik, ekzotik turlarni introduksiya qilish, hamda iqlim oʻzgarishining tezlashishi kabi bir qator antropogen faoliyatlar jamlanmasidan tarkib topadi. Soʻngi yillarda ilgʻor xorijiy ilmiy tadqiqotlarda tuproq qoplami va yerdan foydalanish birliklarining oʻzgarishi landshaft transformatsiyasiga sinonim sifatida eʼtirof etilayotganligi kuzatilmogʻda. Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkiloti (FAO, 1976) ning taʼrifiga koʻra, tuproq qoplami deganda yer yuzasining fizik va biologik qoplami tushunilib, ushbu qoplam oʻsimliklar oʻsishining hayotiy shakllari-daraxt, buta, oʻt-oʻsimliklar hamda suv havzalari, oʻsimlik oʻsmaydigan maydonlar kabilardan tarkib topadi. Yerdan foydalanish esa “maʼlum bir tuproq qoplami turida odamlar amalga oshiradigan antropogen faoliyatlar yigʻindisi” deb taʼriflaydi. Yerdan foydalanish tabiiy muhitni qurilgan muhitga, masalan, ekin maydonlari, yaylovlar va boshqariladigan oʻrmonlar kabilarga oʻzgartirishni oʻz ichiga oladi va tuproq qoplami maʼlum bir turiga kiradi.

Daryo havzasi yogʻingarchilikni toʻplaydigan va uni yoʻnaltiradigan yaxlit geotizimdir. Daryo havzasining chegarasi yuza oqimlarni bir gidrologik tizimga yigʻib, ikkinchisidan ajratib beradi. Bu ajralish chizigʻi daryo sistemasini oʻrab olgan balandliklarni tutashishidan hosil boʻladi. Daryolar fazoviy bogʻlangan sistemalar boʻlganliklari uchun, ular oʻz havzalari darajasida oʻrganiladi. Havzalar vaqt va makon boʻylab jarayon-shakl munosabatlarini sintezlaydi. Ayniqsa, geomorfolog va geoximiklar oʻzanda oqayotgan daryo bilan uning butun havzasini birga idrok etishadi. Har qanday daryo yoki uning muayyan segmentida 6 darajadagi daryo va atrof-muhit oʻrtasidagi modda (suv, loyqa jinslar, tirik organizmlar) va energiya (issiqlik, namlik) oqimi bogʻlanishi boʻlib turadi. Ushbu modda va energiya oqimi bogʻlanishi asosida gidrologik bogʻlanmalar, biologik bogʻlanmalar, landshaft bogʻlanmalar, strukturaviy bogʻlanmalar, funksional bogʻlanmalar tarkib topadi. Umuman olganda antropogen faoliyat daryoning yuqorida keltirilgan gidrologik, biologik, landshaft, strukturaviy, funksional bogʻlanma aloqalarni kamaytiradi. Toʻgʻonlar gidrologik bogʻlanmalarni oʻzgartirib, daryo boʻylab choʻkindi va ayrim organizmlarning koʻchishini toʻxtatishi mumkin. Qirgʻoq barqarorligini taʼminlovchi sementli toʻshamalar oʻzan va qayir oʻrtasidagi bogʻlanmalarni toʻxtatadi. Daryo oqimini burish aksincha gidrologik tarmoqlar oʻrtasidagi bogʻlanmalarni kuchaytirib ekzotik organizmlar, begona oʻtlarning bosqiniga olib keladi. Daryo vodiysining geomorfologik murakkabligini kamaytirish, oʻzanini chuqurlatish, atrofini tekislash kabi tadbirlar mayda choʻkindi va ozuqa moddalarini daryoning quyi oqimlariga tezroq olib ketilishiga zamin yaratadi. Daryo havzalari landshaftlarining inson tomonidan istalmagan oʻzgarishlarini oldini olish uchun ushbu bogʻlanmalarning mohiyatini tushunish, landshaftlarning tuzilishi, funksiyasi va dinamikasini (oʻzgarishini) tahlil qilish talab etiladi.

Soʻnggi oʻn yilliklarda landshaftni tadqiq etish boʻyicha turli yondashuvlarning koʻpayishi kuzatildi. Buning sabablaridan biri geografik axborot tizimlari (GIS) bilan birgalikda ilgʻor statistik tahlil usullari va ochiq maʼlumotlar


bazalarida landshaft miqyosi uchun tegishli ma'lumotlarni qamrab olishning yaxshilanganligi bo'lib, bu landshaftlar transformatsiya jarayonini tadqiq etish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Daryo havzasining chegaralarini aniqlash, topografik xususiyatlarini tahlil qilish uchun Raqamli Balandlik Modeli (DEM)ga ega kosmik tasvirlardan foydalanilmoqda. Shimoliy Farg'ona daryo havzalarining suvayirgich chegaralarini aniqlash uchun balandlikning raqamli modeliga ega SRTM kosmik suratlaridan foydalanildi. Balandlikning raqamli modeli (DEM)-topografiyaning raqamli tasviridir. Daryo tarmoqlari va havzalarni ajratish uchun DEM dan foydalanish Deterministic-8Node (D8) algoritmini ishlab chiqishdan iborat. Bu algoritm balandlik relyefini ifodalovchi katakchalar to'rida suv oqimini har bir yacheyka (katak)dan sakkizta qo'shni katakdan biriga (ortogonal va diagonal) eng yuqori qiyalik yo'nalishida sodir bo'lishini aniqlaydi. Irmoqlarning tutashishidan daryo sistemasi va daryo havzasining chegarasi aniqlanadi.

Landshaftlarning transformatsiya jarayonini tadqiq qilish turli yondoshuvlar doirasida olib borilgan. Xususan, N.T.Sobirova (2020) Aydar-Arnasoy ko'llar tizimiga tutash landshaftlar transformatsiya jarayonini EVI (Enhanced Vegetation Index-o'simliklarning kengaytirilgan vegetatsion indeksi) orqali tahlil qilgan. O.T.Mirzamahmudov (2023) ilmiy izlanishlarida Farg'ona vodiysi adir landshaftlari transformatsiyasi tabiiy-texnogen jarayonlar asosida ro'y berishi asoslab berilgan.

Landshaftlarning antropogen transformatsiya jarayonini tuproq qoplami va yerdan foydalanish tasnif birligi asosida Shimoliy Farg'ona daryo havzalari landshaftlarini gidrogen landshaftlar, o'rmon-dasht landshaftlar, o'tloqi-dasht landshaftlar, o'simliksiz landshaftlar (bedlent, bare land), agrolandshaftlar hamda seletib landshaft birliklariga ajratildi hamda maydon o'zgarishlari qiyosiy tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning **“Shimoliy Farg'ona daryo havzalari landshaftlarining antropogen transformatsiyasi va funksional-dinamik landshaft tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Shimoliy Farg'ona daryo havzalari tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlari, daryo havzalari landshaftlarining antropogen transformatsiyalashuvi, daryo havzalarida landshaft-ekologik vaziyatlarning vujudga kelishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Chotqol-Qurama tizmalaridan boshlanuvchi uzunligi 1-10 km gacha bo'lgan 1316 ta soy, uzunligi 10 km dan uzun bo'lgan 131 ta soylar mavjud. Ulardan eng yiriklari Kosonsoy, Pochchaotasoy hamda G'ovasoydir. Shimoliy Farg'ona daryo havzalari tog'lardan chiqib adir mintaqasiga duch kelganda tarmoqlar hosil qilishini hisobga olib ayrim kichik soylarning havzalari bilan Pochchaotasoy, Kosonsoy, G'ovasoy daryosi havzalarining suvayirgich chegaralari o'tkazildi. Daryo havzalarining antropogen transformatsiyasini tadqiq etish uchun Pochchaotasoy havzasi Chortoqsoy havzasiga tomon tarmoqlanganligi bois Pochchaotasoy havzasi tarkibida Chortoqsoy hamda Namangansoy ham birga o'rganildi. Kengko'lsay, Sho'rbuloqsoy havzalari Kosonsoy daryosi havzasiga kiritildi. Garchi ayrim soylar o'zining alohida mustaqil havzalariga ega bo'lsada, ularning havzalari yirikroqlariga sub havza sifatida birlashtirildi. Kengko'lsay, Olmossoy, Sumsarsoy soylarining havzalari G'ovasoy daryosi havzasi bilan sub havza sifatida birga tatqiq etildi (1-rasm).




1-rasm. Shimoliy Farg'ona daryo havzalari

Izoh: daryo havzalari Raqamli Balandlik Modeliga ega SRTM suratlari asosida ajratilgan.

Shimoliy Farg'ona shimoldan janubga tomon Chotqol tog'laridan Sirdaryoning qayirlarigacha, g'arbda Sarvaksoyning sharqda Norin daryosining Qarasuv irmoqlari suvayirgichlarigacha cho'zilgan. Geologik tuzilishiga ko'ra eng keksa tog' jinslari uning shimoliy qismi bo'lgan Chotqol tog'lariga to'g'ri kelib Sirdaryoning qayiri tomon janubga tomon yosharib boradi. Geomorfologiyasiga ko'ra ko'plab daryo havzalariga xos bo'lgan tog', tog' oldi, adir hamda tekislik mintaqalari ajratiladi. Iqlim xususiyatlari balandlik mintaqalanishiga ko'ra ko'p yillik o'rtacha harorat tog'lardan tekislikka tomon ortib, yog'in miqdori kamayib boradi. Hidrologik ko'rsatkichlariga ko'ra eng sersuv daryo Kosonsoy daryosi hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishida Shimoliy Farg'ona daryo havzalari landshaftlarining antropogen transformatsiyasi jarayonini Sentinel-2 kosmik stansiyasi suratlari deshifrovkalash asosida tasniflangan tuproq qoplami va yerdan foydalanish birliklari bo'yicha 2017-2023 yillardagi holati tahlil qilindi (2-rasm).

Shimoliy Farg'ona daryo havzalarining shimoliy tog'li relyef qismi ma'muriy jihatdan Qirg'iz Respublikasining Jalol-obod viloyati joylashgan bo'lib, aholi zichligi ancha past (1 km.kv maydonga 39 kishi to'g'ri keladi). Biroq, nisbatan tekis bo'lgan qismi O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyatiga to'g'ri kelib, aholi zichligi yuqori (412 kishi, 2023-yil). Taqqoslaydigan bo'lsak daryo havzalarining aholi zichligi Namangan viloyati hududida qo'shni respublika hududidagi aholi zichligiga nisbatan 10 martadan ortiqroq zichlikka ega.



2-rasm. Shimoliy Farg‘ona daryo havzalarining landshaftlar transformatsiyasi kartasi

Landshaftlarning antropogen transformatsiya jarayonini tuproq qoplami va yerdan foydalanish tasnif birligi asosida Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaftlarini gidrogen landshaftlar, o‘rmon-dasht landshaftlar, o‘tloqi-dasht landshaftlar, o‘simliksiz landshaftlar (bedlent, bare land), agrolandshaftlar hamda seliteb landshaft birliklariga ajratildi. 2023-yil holati bo‘yicha har uch daryo havzasida o‘tloqi-dasht landshaft komplekslari dominant bo‘lib, keyingi o‘rinlarda agrolandshaftlar hamda seliteb landshaftlar ustunlik qiladi (1-jadval).

1-jadval


Shimoliy Farg‘ona daryo havzalari landshaft komplekslarining maydon ko‘rsatkichlari va uning o‘zgarishi (km² hisobida)

Daryo havzalari	Kosonsoy			Pochchaotasoy			G‘ovasoy		
	2017	2023	farqi	2017	2023	farqi	2017	2023	farqi
Landshaft komplekslari	2017	2023	farqi	2017	2023	farqi	2017	2023	farqi
gidrogen landshaftlar	23,1	21,9	-1,2	4,3	2,8	-1,5	20,06	16,75	-3,31
o‘rmon-dasht landshaftlar	28,7	12,2	-16,5	38,2	32,1	-6,1	8,81	4,08	-4,73
agrolandshaftlar	708,6	703,8	-4,8	705,7	665,2	-40,5	550,58	567,62	17,04
seliteb landshaftlar	342	391,9	49,9	285,2	331,2	46	159,42	224,12	64,7
o‘simliksiz lyoss, qumloq, qoyalar	87,6	50,1	-37,5	56,1	27,1	-29	157,27	47,85	-109,4
glatsial-nival landshaftlar	60,2	18,1	-42,1	65,1	37,3	-27,8	13,15	0,4	-12,75
o‘tloqi-dasht landshaftlar	1977,8	2030,2	52,4	1162,9	1221,6	58,7	1785,67	1834,2	48,53
daryo havzalari maydoni	3228	3228,2	0,2	2317,5	2317,3	-0,2	2694,96	2695,02	0,06

Daryo havzalari ichida oʻrmonlar egallagan maydoniga koʻra yetakchi daryo havzasi bu- Pochchaotasoydir. Aksincha gidrogen landshaftlar Gʻovasoy hamda Kosonsoy daryolari havzasida Pochchaotasoynikiga nisbatan kattadir. Buning boisi ularning havzalarida suv omborlar hamda sel omborlarining koʻpligidir. Doimiy qorliklar va muzliklar Gʻovasoy daryolari havzasida qolgan daryo havzalariga nisbatan eng kamdir.

Yuqoridagi jadval daryo havzalaridagi landshaft komplekslarining 2017-2023 yillardagi holati va oʻzgarishlar farqini mutlaq koʻrsatkichlarda ifodalaydi. Daryo havzalari boʻyicha transformatsiyaga uchragan landshaft maydonlari Gʻovasoy daryolari havzasida 260,48 km. kv boʻlib havzaning 10% ini, Pochchaotasoy daryolari havzasida 209,6 km. kv yoki havzaning 9% ini, Kosonsoy daryosi havzasining esa 204,4 km. kv boʻlib havzaning 6% qismini tashkil etgan. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, Kosonsoy havzasida Namangan shahrining maydoni kengayib bormoqda. Bu kengayish koʻp qavatli uy-joylarning qurilishi sabab seliteb landshaftlar vertikaliga oʻsmoqda deyish mumkin.


Daryo havzalarining 2017-2023 yillardagi landshaftlar transformatsiyalashuvi tahlili shuni koʻrsatadiki, barcha daryo havzalarida seliteb landshaftlar maydonining ortganligini koʻrish mumkin. Agrolandshaft maydonlari esa Gʻovasoy daryolari havzasida ortgan aksincha Kosonsoy hamda Pochchaotasoy daryolari havzasida kamaygan. Barcha daryo havzalarida oʻtloqi-dasht landshaftlari maydoni ortgan boʻlsa. gidrogen, oʻrmon-dasht, oʻsimliksiz landshaftlar (lyoss, qumloq, qoyalar), muzliklar, qorliklar maydoni kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Agrolandshaftlar maydonining kamayishiga aholi turar joylari, yoʻllarning bunyod etilishi, suv taqchilligi kabilar sabab boʻlgan. Aholining oʻsishi sabab uy-joy qurilishi surʼatlarining oshishi seliteb landshaftlar maydoning ortishiga olib kelgan (3-rasm).



3-rasm. Shimoliy Fargʻona daryo havzalarining transformatsiyasi dinamikasi (2017-2023y)

Shimoliy Fargʻona daryo havzalarining Namangan viloyati hududida seliteb landshaftlar maydonining kengayishi Kosonsoy daryosi havzasida eng koʻp agrolandshaftlar hisobiga (3228,4 gektar) boʻlsa, Pochchaotasoy daryosi havzasida oʻtloqi-dasht landshaftlari hisobiga (2090,6 gektar), Gʻovasoy daryosi havzasida esa oʻsimliksiz lyoss, qumloq landshaftlar hisobiga (2047 gektar) yuzaga kelgan.

Agrolandshaftlarning ortishi asosan o‘tloqi-dasht landshaftlarining o‘zlashtirilishi hisobiga ro‘y bergan. Natijada Pochchaotasoy daryosi havzasida 2090,6 gektarga, Kosonsoy daryosi havzasida 2172,8 gektarga, G‘ovasoy daryosi havzasida esa 3136 gektar o‘zlashtirilgan agrolandshaftlar tarkib topgan. Daryo havzalarini Namangan viloyati hududiga tegishli qismini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, seliteb landshaftlar agrolandshaftlar, o‘tloqi-dasht landshaftlar, o‘simliksiz lyoss, qumloq landshaftlar maydonida bunyod etilgan (4-rasm).



4-rasm. Shimoliy Farg‘ona daryo havzalarining seliteb va agrolandshaftlarga transformatsiyalangan fatsiyalari kartasi

Daryo havzalari chuchuk suv manbai-ulkan suv omboridir. Daryo havzasi uchun landshaftlarning ahamiyati suvni saqlab turish, infiltratsiya qilish, filtrlash kabilardan iboratdir. Daryo havzasi landshaftlari tabiiy ravishda suvni to‘playdi va yog‘in suvlarini quruq mavsumda qurg‘oqchilikning oldini oladigan va nam mavsumda suv toshqinining oldini oladigan tezlikda chiqaradi. Daryo havzalarining sog‘lom landshaftlari tabiiy shimgich bo‘lib, yog‘ingarchilikni ushlab turadi va uni asta-sekin oqimlarga aylantirib daryolarni to‘yintiradi va suvni tozalab beradi. Biroq, landshaftlarning antropogen transformatsiyalashuvi bilan boruvchi maydon o‘zgarishlari: doimiy qor va muzliklar, o‘rmonlar maydonining kamayishi, agrolandshaftlar va seliteb landshaftlar maydonining ortishi daryo havzalarining yuqorida keltirilgan funksiyalarining bajarish qobiliyatini pasaytirib tuproq eroziyasining ortishiga, loyqa oqiziqqlarning ko‘payishiga va suv sifatining pasayishiga olib keladi. Natijada daryo havzasi landshaftlarining suvni tabiiy tartibga solish faoliyatining pasayishi kuzatiladi.

